

## **ADLIYA ORGANLARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK SHAKLLARI, USULLARI, TAMOYILLARI VA ULARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

**Quramboyeva Zahro Baxrom qizi**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida adliya sohasida boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda vertikal, gorizontal va tarmoqlararo hamkorlik shakllari, normativ-metodik hamda axborot-kommunikatsion hamkorlik yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, adliya organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish, vakolatlar taqsimoti, raqamli integratsiya va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. PQ-3666-son qarori asosida institutsional asoslar tahlil qilinib, raqamli transformatsiya sharoitida hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Adliya organlari, davlat boshqaruvi, o'zaro hamkorlik, vertikal va gorizontal muvofiqlashtirish, tarmoqlararo integratsiya, normativ-metodik faoliyat, raqamli adliya, elektron hukumat, vakolatlar taqsimoti, huquqiy siyosat.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье проводится научно-правовой анализ механизмов взаимодействия органов, осуществляющих управление в сфере юстиции Республики Узбекистан. Рассматриваются вертикальные, горизонтальные и межотраслевые формы сотрудничества, а также нормативно-методические и информационно-коммуникационные направления взаимодействия. Особое внимание уделено вопросам распределения полномочий, координации деятельности, цифровой интеграции и повышению эффективности управления. На основе анализа постановления ПП-3666 раскрываются институциональные основы сотрудничества и формулируются выводы по совершенствованию взаимодействия в условиях

цифровой трансформации. Результаты исследования направлены на укрепление правовой политики и повышение эффективности системы юстиции.

**Ключевые слова:** Органы юстиции, государственное управление, межведомственное взаимодействие, вертикальная и горизонтальная координация, межотраслевая интеграция, нормативно-методическая деятельность, цифровая юстиция, электронное правительство, распределение полномочий, правовая политика.

## **ABSTRACT**

This article provides a scientific and legal analysis of cooperation mechanisms among public authorities responsible for governance in the justice sector of the Republic of Uzbekistan. The study examines vertical, horizontal, and intersectoral forms of cooperation, as well as regulatory-methodological and information-communication approaches. Particular attention is paid to the distribution of powers, coordination mechanisms, digital integration, and the enhancement of administrative efficiency. Based on the analysis of Resolution No. PP-3666, the institutional foundations of cooperation are identified, and recommendations for improving interaction in the context of digital transformation are proposed. The research findings contribute to strengthening legal policy consistency and improving the effectiveness of the justice system.

**Keywords:** Justice authorities, public administration, inter-agency cooperation, vertical and horizontal coordination, intersectoral integration, regulatory and methodological activity, digital justice, e-government, distribution of powers, legal policy.

## **1. Kirish**

Adliya organlari tizimi davlatning huquqiy siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishda eng asosiy tayanch bo'g'in hisoblanadi. Mazkur tizimning samaradorligi nafaqat har bir organning alohida vakolati va tashkiliy salohiyatiga, balki ular o'rtasidagi hamkorlikning qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganiga ham bevosita bog'liq. Ayniqsa, huquq ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi, huquqiy targ'ibot, huquqni qo'llash amaliyotini birxillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatish, notariat, FHDYO, intellektual

mulk, arxiv ishi hamda yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi yo‘nalishlarda adliya organlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda hamkorlik qilish zarurati yuzaga keladi.

Adliya organlari o‘rtasidagi hamkorlik deganda, Adliya vazirligi markaziy apparati, hududiy adliya organlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari), adliya muassasalari (davlat xizmatlari markazlari, FHDYO organlari, davlat notarial idoralari va arxivlari, sud ekspertiza muassasalari, milliy huquqiy axborot markazi, intellektual mulk sohasidagi institutlar, arxiv tizimi va boshqalar) o‘rtasida vakolatlarni belgilash, resurslarni oqilona taqsimlash, yagona yondashuvni shakllantirish hamda maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladigan huquqiy va tashkiliy choralar majmuasi tushuniladi.

## **2. Metodlar.**

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida **ilmiy-tahliliy yondashuvga** asoslanilgan bo‘lib, mavzu qator metodlar orqali har tomonlama o‘rganildi. Xususan, **qiyosiy-huquqiy tahlil metodi** yordamida me‘yoriy-huquqiy asoslari xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi bilan solishtirildi. Shuningdek, **qiyosiy-mantiqiy tahlil metodi** orqali huquqiy institutlarning rivojlanish bosqichlari, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi va huquqiy tizimdagi o‘rni aniqlab berildi.

## **3. Tadqiqot natijalari**

Dastlab tashkiliy-boshqaruv hamkorligi shakllarini ko‘rib chiqsak:

a) Vertikal hamkorlik (bo‘ysunuv asosidagi muvofiqlashtirish). Adliya tizimi markazlashgan boshqaruv xususiyatiga ega bo‘lgani sababli, markaziy apparat va hududiy organlar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘pincha vertikal (normativ ko‘rsatma, metodik rahbarlik, ijro intizomi nazorati) shaklida kechadi. Bunda markaziy organ umumiy siyosatni belgilaydi, standartlarni joriy etadi, hududiy organlar esa uni hudud sharoitidan kelib chiqib amalga oshiradi.

Rossiyalik olim Yu.N. Starilov ushbu hamkorlik shaklini bo'ysunuv asosidagi koordinatsiya shakli deya atab, unda yuqori turuvchi organ metodik rahbarlik, nazorat va normativ ko'rsatmalar orqali quyi bo'g'in faoliyatini muvofiqlashtirishini ta'kidlaydi shuningde u bu jarayonni "markazlashgan boshqaruv modeli" sifatida tavsiflaydi

b) Gorizontal hamkorlik. Hududiy adliya boshqarmalari, tuman (shahar) adliya bo'limlari, davlat xizmatlari markazlari, FHDYo organlari, notariat, arxiv muassasalari o'zaro tenglik prinsipi asosida, masalan, umumiy muammolarni hal etish, tajriba almashish, qo'shma loyiha va treninglar o'tkazish orqali hamkorlik qiladi. I.I. Makarevich ham ushbu hamkorlik shakliga ta'rif berar ekan u davlat boshqaruvida gorizontal ko'rinishdagi hamkorlikni "innovatsion rivojlanishning asosiy omili" deb hisoblashini ta'kidlagan.

c) Tarmoqlararo hamkorlik. Adliya organlari tizimiga kiruvchi muassasalar, xususan huquqiy axborot markazlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari markazlari, intellektual mulk markazi, sud ekspertiza muassasalari, arxiv agentligi va davlat arxivlari hamda yuridik ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik tarmoqlararo xarakterga ega bo'lib, funksional integratsiya asosida amalga oshiriladi. Mazkur hamkorlik huquqiy faoliyatni izchil va bosqichma-bosqich tashkil etishni nazarda tutadi. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni huquqiy va ilmiy ekspertizadan o'tkazish, rasmiy e'lon qilish hamda huquqiy axborotni tarqatish, amaliyotga tatbiq etish va huquqiy targ'ibotni amalga oshirish jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Normativ-metodik hamkorlik shakllariga to'xtalsak, Adliya organlari faoliyatida normativ-metodik hamkorlik yagona amaliyotni shakllantirish va huquqni qo'llash jarayonida bir xillikni ta'minlashga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. Mazkur hamkorlik, avvalo, metodik ko'rsatmalar va standartlarni ishlab chiqish hamda joriy etish orqali namoyon bo'ladi. Xususan, yo'riqnomalar, metodik qo'llanmalar, standart operatsion tartiblar, davlat xizmatlari ko'rsatish reglamentlari va hujjat aylanishi standartlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, o'quv-uslubiy hamkorlik ham normativ-metodik hamkorlikning ajralmas qismi bo'lib, u hududiy organlar xodimlari uchun o'quv kurslari, malaka oshirish dasturlari, masofaviy treninglar

va attestatsiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat nafaqat xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilashga, balki yagona yondashuv va yuqori darajadagi xizmat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi, Axborot-kommunikatsion hamkorlik shakllari bo'lib Axborot-kommunikatsion hamkorlik adliya organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi hamda, eng avvalo, idoralararo axborot almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Adliya organlarining ko'plab funksiyalari turli ma'lumotlar bazalari, reyestrlar va elektron tizimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jumladan normativ-huquqiy hujjatlar bazasi, idoraviy hujjatlar reyestri, "E-qaror" tizimi monitoringi, "Notarius" axborot tizimi, arxiv axborot resurslari hamda davlat xizmatlari reyestrini qamrab oladi. Ushbu tizimlarning o'zaro integratsiyasi ya'ni API texnologiyalari, yagona identifikatsiya tizimi, elektron raqamli imzo va audit jurnallari orqali hamkorlikni tez va aniq amalga oshirish imkonini beradi.

Shu o'rinda adliya sohasida boshqaruvni organlari o'rtasidagi hamkorlik usullariga to'xtalsak. Adliya organlari o'rtasidagi hamkorlik usullari — bu hamkorlikni ta'minlovchi aniq mexanizm va vositalar majmui bo'lib, ular mavjud hamkorlik shakllarining samarali ishlashini ta'minlaydi. Mazkur usullar tizimdagi tashkilotlar va organlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan, izchil va natijador faoliyatni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Birinchi usul bu koordinatsiya va rejalashtirish bo'lib unga ko'ra konsepsiya va yo'l xaritalari orqali tizimdagi organlar o'rtasida yillik va choraklik faoliyat yo'nalishlari, sektorlar kesimidagi vazifalar hamda dasturlar ishlab chiqiladi. Bu esa hamkorlikning aniq muddatlari, mas'ul subyektlari va amalga oshirish mexanizmlarini belgilash imkonini beradi. Masalan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 15-yanvardag "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 20-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 48-sonli bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 7-um-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-2030-yillarga mo'ljallangan "Raqamlashtirish strategiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida buyrug'ini qabul qilgan bo'lib unga ko'ra Raqamlashtirish strategiyasi hamda yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Bu orqali adliya sohasida

boshqaruvni raqamlashtirish masalasi rejalashtirilgan va buni bosqichma bosqich organlarning hamkorligi asosida amalga oshirilishi belgilangan. Shu bilan birga, muayyan masalalarni hal etish maqsadida ishchi guruhlar va idoralararo komissiyalar tashkil etilib, ular orqali vazifalar taqsimlanadi va muammolar kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi. Jumladan, Intellektual mulk O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Apellyatsiya kengashiga apellyatsiyalar va O‘zbekiston Respublikasida hammaga ma’lum tovar belgilari deb e’tirof etish to‘g‘risidagi arizalarni berish va ularni ko‘rib chiqish qoidalarini tasdiqlash haqidagi buyrug‘ida Apellyatsiyani ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri Apellyatsiya kengashi raisi hisoblanadi. Apellyatsiya kengashi tarkibiga Vazirlikning malakali va tajribali xodimlari, shuningdek, mustaqil olimlar va mutaxassislar kiritilishi shuningdek Vazirlikning Apellyatsiya kengashi tarkibidagi xodimlari soni Apellyatsiya kengashi umumiy a‘zolari sonining o‘ttiz foizidan oshmasligi lozim ekanligi qayd etilgan.

Navbatdagi usul bu “Metodik yordam va konsultativ usullar” bo‘lib, ushbu usullar metodik ko‘mak ko‘rsatish orqali markaziy yoki hududiy mutaxassislar joylarga chiqib, amaliyotda yuzaga kelgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda bevosita yordam beradi, shuningdek hujjatlarni yuritish, xizmat ko‘rsatish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi. Bundan tashqari, huquqiy maslahat va “call-center” shaklidagi konsultativ mexanizmlar orqali markaziy apparat va hududiy bo‘linmalar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi ta’minlanadi. Savol-javob bazalari, tez-tez uchraydigan holatlar bo‘yicha “FAQ” tizimlarining joriy etilishi ushbu usulni yaqqol namunasi hisoblanadi.

Keying usul esa axborot texnologiyalariga asoslangan usullar hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda axborot texnologiyalariga asoslangan usullar hamkorlikning samaradorligini oshirishda muhimdu sababi elektron platformalar shu orqali real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati yaratiladi. “E-qaror”, “ijro.gov.uz”, “Notarius” kabi axborot tizimlari orqali hujjatlarni qabul qilishdan tortib ularni rasmiy e’lon qilishgacha bo‘lgan jarayonlar uzluksiz nazorat qilinadi hamda aniqlangan kamchiliklar odatiy usullarga qaraganda tezroq baartaraf qilinadi.

Ushbu pragrafning mantiqiy davomi sifatida adliya vazirligi tizimida hamkorlikni amalga oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori Adliya vazirligining institutsional maqomini mustahkamlash, uning funksional vakolatlarini aniqlashtirish hamda markaziy apparat va hududiy tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini tizimlashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qaror bilan Vazirlikning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish tartibi, ichki boshqaruv vertikali, vakolatlar taqsimoti va kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlari aniq belgilab berilgan.

Jumladan qarorning 21-bandiga muvofiq, Vazirlik o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bevosita, shuningdek, adliya organlari va muassasalari orqali amalga oshiradi. Bir tomondan, Vazirlik markaziy apparati normativ-huquqiy siyosatni ishlab chiqish, metodik rahbarlik qilish, nazorat va monitoringni amalga oshirish kabi strategik va tashkiliy funksiyalarni bevosita bajaradi. Ikkinchi tomondan, hududiy adliya organlari va idoraviy mansub muassasalar Vazirlik tomonidan belgilangan siyosat va standartlarni joylarda amaliyotga tatbiq etadi. Bu yondashuv davlat boshqaruvida funksiyalarni taqsimlash, markaz va hududlar o‘rtasida samarali mehnat taqsimotini yo‘lga qo‘yish hamda resurslardan optimal foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek qarorning 22-bandida Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, hududiy tuzilmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish tartibi belgilangan. Ushbu norma institutsional boshqaruvda muhim, chunki har qanday murakkab tizimda vakolatlarning kolliziyasi, qonunlarni sharhlash yoki amaliyotga tatbiq etish masalalarida kelishmovchilik yuzaga kelishi tabiiydir. Shu bois mazkur band kelishmovchiliklarni hal etishning aniq iyerarxik mexanizmini nazarda tutadi. Unga ko‘ra, bunday kelishmovchiliklar vazirning topshirig‘iga binoan uning tegishli o‘rinbosari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu esa boshqaruv jarayonida subsidiarlik tamoyilini aks ettiradi, ya’ni masala avvalo tegishli darajada va vakolatli mansabdor shaxs tomonidan hal etilishi lozim.

Vazir o‘rinbosari masalani ko‘rib chiqish orqali o‘z vakolatlari doirasida nizoni tartibga soladi, zarur hollarda metodik tushuntirishlar beradi yoki tegishli ko‘rsatmalar chiqaradi. Agar vazir o‘rinbosari tomonidan kelishmovchilikni tartibga solish imkoniyati bo‘lmasa, so‘nggi qaror bevosita vazir tomonidan qabul qilinadi. Bu norma yakuniy qaror qabul qilish vakolatining eng yuqori mansabdor shaxs vazir zimmasida ekanini belgilaydi.

#### **4. Xulosa**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, adliya sohasida boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlik ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega ekanligi aniqlanadi. Hamkorlik vertikal, gorizontal va tarmoqlararo shakllarda namoyon bo‘lib, ularning har biri boshqaruvning izchilligi, funksional muvofiqlik va huquqni qo‘llash amaliyotining bir xilligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Vertikal hamkorlik markazlashgan boshqaruv modeli asosida metodik rahbarlik va nazoratni ta‘minlasa, gorizontal hamkorlik innovatsion rivojlanish va tajriba almashinuviga zamin yaratadi. Tarmoqlararo hamkorlik esa funksional integratsiya orqali normativ-huquqiy faoliyatning uzluksizligini kafolatlaydi.

Shuningdek, normativ-metodik va axborot-kommunikatsion hamkorlik shakllari yagona amaliyotni shakllantirish, standartlashtirish va raqamli integratsiyani kuchaytirish orqali tizim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy sharoitda elektron platformalar, real vaqt rejimidagi monitoring va integratsiyalashgan axborot tizimlari hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishini ta‘minlamoqda.

PQ-3666-son qarori bilan Adliya vazirligi tizimida vakolatlar taqsimoti, boshqaruv vertikali va kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarining aniq belgilanishi institutsional barqarorlikni mustahkamladi. Markaziy apparat va hududiy bo‘g‘inlar o‘rtasida funksional mehnat taqsimotining yo‘lga qo‘yilishi, subsidiarlik tamoyiliga asoslangan nizolarni hal etish tartibi hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 06.11.2021 yil. [www.yuz..uz](http://www.yuz..uz)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-son farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018 yildagi PQ-3666-son O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori
5. Ma‘muriy huquq: umumiy qism (I) [Matn]: darslik / Nematov Jo‘rabek Nematilloevich. – T.: TDYU nashriyoti, 2026. – 680 b.
6. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar: Darslik / Mualliflar jamoasi T.: TDYU nashriyoti, 2023. 292 bet